

ISSN 3060-544X

2026-yil 7-son

ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

ilmiy-nazariy jurnal

BUXORO 2026



ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

ilmiy-nazariy jurnal

СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО И ИННОВАЦИИ

научно-теоретический журнал

MODERN SOCIETY AND INNOVATIONS

scientific-theoretical journal

№ 7-son, 1-qism 2026-yil

*Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi.*

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2025-yil 24-sentyabrdagi 375/5-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning disertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA:

Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Yo'nalishi	Bet
<i>A'ZAMOVA XUMOROY ILYOSJONOVNA</i>	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SO'Z-MANTIQ TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH SHARTI SIFATIDA ERTAKLAR SYUJETLARIDAGI TRIGGERLARDAN FOYDALANISH	PSIXOLOGIYA	3
	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРИГГЕРОВ В СЮЖЕТАХ СКАЗОК КАК УСЛОВИЕ РАЗВИТИЯ СЛОВЕЧНО-ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА		
	THE USE OF TRIGGERS IN FAIRY TALE PLOTS AS A CONDITION FOR THE DEVELOPMENT OF VERBAL-LOGICAL THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN		
<i>AXROROV VORIS YUNUSOVICH</i>	PEDAGOGIK FAOLIYATDA KONFLIKTLI HOLATLARDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK CHIDAMLILIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI	PSIXOLOGIYA	8
	ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЯХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ		
	FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL RESILIENCE OF FUTURE TEACHERS IN CONFLICT SITUATIONS WITHIN PEDAGOGICAL ACTIVITY		
<i>MAXMUDOVA ZULFIYA MEXMONOVNA</i>	QO'RIQLASH XIZMATI XODIMLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	13
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОТРУДНИКОВ СЛУЖБЫ ОХРАНЫ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF SECURITY SERVICE PERSONNEL		
<i>SUVONOVA LOBARXON ISLOM QIZI</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN AUDITORIYA VA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLARD FOYDALANISHDA PEDAGOGIK DIZAYNING AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	25
	ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИЗАЙНА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В АУДИТОРНЫХ И ВНЕАУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ		
	THE IMPORTANCE OF INSTRUCTIONAL DESIGN IN THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN CLASSROOM AND EXTRACURRICULAR LEARNING ACTIVITIES		

<i>RAXIMBAYEVA GULYORA ULUGBEKOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHINI O'RGANISHDA QO'LLANILADIGAN PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR TASNIFI	PSIXOLOGIYA	30
	КЛАССИФИКАЦИЯ ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДИК, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ У СТУДЕНТОВ		
	CLASSIFICATION OF PSYCHODIAGNOSTIC METHODS USED IN STUDYING THE FORMATION OF STUDENTS' SOCIAL IDENTIFICATION		
<i>MASHARIPOVA XADICHA JAVLON QIZI</i>	MATERIALSHUNOSLIK ASOSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	36
	ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ОСНОВ МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЯ		
	THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE FUNDAMENTALS OF MATERIALS SCIENCE		
<i>ISABAYEV ABDUKARIM KOMILJONOVICH</i>	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	40
	ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА		
	PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING COGNITIVE ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN		
<i>AHMADOVA MAHBUBA SHAVKAT QIZI</i>	ALISHER NAVOIY IJODIDAGI DO'STLIK VA SADOQAT G'OYALARINI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYAVIY VOSITA SIFATIDA QO'LLASH	PEDAGOGIKA	45
	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИДЕЙ ДРУЖБЫ И ПРЕДАННОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ КАК СРЕДСТВА ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ		
	THE USE OF THE IDEAS OF FRIENDSHIP AND LOYALTY IN ALISHER NAVOI'S WORKS AS AN EDUCATIONAL TOOL IN PRIMARY EDUCATION		
<i>MAHMARAIMOV JASUR JUMANAZAROVICH</i>	BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA SHUG'ULLANUVCHI BADMINTONCHILARGA TEXNIK-TAKTIK XARAKAT ELEMENTLARINI O'RGATISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	51
	МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИМ ДЕЙСТВИЯМ БАДМИНТОНИСТОВ НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ		
	METHODOLOGY FOR TEACHING TECHNICAL AND TACTICAL MOVEMENT ELEMENTS TO BADMINTON PLAYERS AT THE INITIAL TRAINING STAGE		

<i>RAXIMOVA FAZILATXON ATABEKOVNA</i>	TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARIGA O'RTA OSIYO ALLOMALARINING ILMIY MEROSINI O'RGATISHNING DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI	PEDAGOGIKA	58
	ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НАУЧНОМУ НАСЛЕДИЮ УЧЕНЫХ СРЕДНЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ		
	OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE DIDACTIC SUPPORT OF TEACHING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS ABOUT THE SCIENTIFIC HERITAGE OF MIDDLE SCHOOL SCIENTISTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS		
<i>САБИРОВА ШАХЛО</i>	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV FAOLLIKNI DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH	PEDAGOGIKA	63
	РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА СРЕДСТВАМИ ДИДАКТИЧЕСКОЙ ИГРЫ		
	DEVELOPING THE COMMUNICATIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH DIDACTIC GAMES		
<i>MASHARIPOVA SAIDA RAHIMOVNA</i>	OTA-ONALARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI VA FARZANDLARNING SHAXSIY KAMOLOTIGA TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	67
	ВЛИЯНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА РОДИТЕЛЕЙ НА ЛИЧНОСТНОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ДЕТЕЙ		
	PARENTS' EMOTIONAL INTELLIGENCE AND ITS IMPACT ON CHILDREN'S PERSONAL DEVELOPMENT		
<i>TOSHEV ALISHER TEMIROVICH</i>	ШАХМАТ O'YINLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASH VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	71
	МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ШАХМАТНОЙ ИГРЫ		
	METHODOLOGY FOR DEVELOPING LOGICAL THINKING AND INTELLECTUAL GROWTH IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON CHESS GAMES		
<i>DAVLATOVA ZEBO HAYDAROVNA</i>	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING HISSIY-IRODAVIY RIVOJLANISHGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	76
	ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА		
	THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGY USE ON THE EMOTIONAL AND VOLITIONAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN		

<i>JUMAYEV NODIR ZAYNIDDINOVICH</i>	O'SMIRLARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TECHNOLOGIYALARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI	PSIXOLOGIYA	83
	ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ		
	THE PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AMONG ADOLESCENTS		
<i>TESHABOEV AKRAMJON YULDASHEVICH</i>	TALABALARNING O'QUV JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLARINI ANIQLASH VA KORREKSIYALASHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA TECHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	90
	МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ ПРИ ВЫЯВЛЕНИИ И КОРРЕКЦИИ ТРУДНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ		
	METHODOLOGY FOR USING PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC TECHNOLOGIES TO IDENTIFY AND CORRECT STUDENTS' LEARNING DIFFICULTIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS		
<i>АСЛАМКУЛОВА ПАРВИНА ЖАМШИД КИЗИ</i>	SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA BILIMNING ISHONCHLILIGI MUAMMOSI: FALSAFIY VA GNOSEOLOGIK TAHLIL	PEDAGOGIKA	98
	ПРОБЛЕМА ДОСТОВЕРНОСТИ ЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ФИЛОСОФСКО-ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ		
	THE PROBLEM OF KNOWLEDGE RELIABILITY IN THE ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A PHILOSOPHICAL AND EPISTEMOLOGICAL ANALYSIS		
<i>TURSUNKULOVA SHODIYA</i>	TALABALARDA EMOTSIONAL BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	PSIXOLOGIYA	105
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ У СТУДЕНТОВ		
	PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING EMOTIONAL STABILITY IN STUDENTS		
<i>TOHIROVA FERUZA</i>	BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUHITNING TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	110
	ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ		
	THE INFLUENCE OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT ON THE FORMATION OF PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE HEALTHCARE PROFESSIONALS		

<i>ESHPU LATOVA SHOXISTA</i>	O‘SMIRLARDAGI AGRESSIV XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHIDA OILAVIY VA PEDAGOGIK MUHITNING PSIXOLOGIK TA‘SIRI	PSIXOLOGIYA	119
	ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНОЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ		
	THE PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF FAMILY AND EDUCATIONAL ENVIRONMENTS ON THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS		
<i>ERGASHEV IBODULLA</i>	“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINING JAMIYAT IDEOSFERASINI YANGILASHDAGI O‘RNI	PEDAGOGIKA	126
	РОЛЬ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030» В ОБНОВЛЕНИИ ИДЕОСФЕРЫ ОБЩЕСТВА		
	THE ROLE OF THE “UZBEKISTAN – 2030” STRATEGY IN RENEWING THE IDEOLOGICAL SPHERE OF SOCIETY		
<i>TUXTASHEVA RUSHANA SADULLAYEVNA</i>	OLIIY TA‘LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA‘LIM JARAYONIDA INTERFAOL MULOQOTNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	PEDAGOGIKA	131
	РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИНТЕРАКТИВНОГО ОБЩЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ		
	THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING INTERACTIVE COMMUNICATION IN DISTANCE LEARNING PROCESSES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS		
<i>USMONOV RAHIM RAXMONALI O‘GLI</i>	TURLI HUDUDIY SHAROITLARDAGI HAYDOVCHILARNING G‘AZABLANISH DARAJASINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	PSIXOLOGIYA	136
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УРОВНЯ АГРЕССИВНОСТИ И ГНЕВА ВОДИТЕЛЕЙ В РАЗЛИЧНЫХ РЕГИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DRIVERS’ ANGER LEVELS IN DIFFERENT REGIONAL CONDITIONS		
<i>RAHIMOVA NAVBAHOR RUSTAMOVNA, OLIMOV TEMUR HASANOVICH</i>	DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	PEDAGOGIKA	141
	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА		
	IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ COMMUNICATIVE COMPETENCE BASED ON A DIFFERENTIATED APPROACH		

<i>TURDIKULOVA EBZOXOH ERKINJOH KIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA CHET TILIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA INTERNET TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	PEDAGOGIKA	147
	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРНЕТ-ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ		
	THE EFFECTIVENESS OF USING INTERNET TECHNOLOGIES IN DEVELOPING FOREIGN LANGUAGE COMMUNICATIVE COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS		
<i>RASHIDOV ABDURASHID MURODULLAYEVICH</i>	PSIXOLOGIK METODLAR YORDAMIDA YOSHLARDA VATAN HIMOYASI RUHINI TARBIYALASH	PSIXOLOGIYA	152
	ФОРМИРОВАНИЕ У МОЛОДЕЖИ ДУХА ЗАЩИТЫ РОДИНЫ С ПОМОЩЬЮ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ		
	CULTIVATING THE SPIRIT OF DEFENDING THE MOTHERLAND AMONG YOUTH THROUGH PSYCHOLOGICAL METHODS		
<i>ABSAMATOVA GULKHAYO BAKHODIROVNA</i>	DUNYO IMO-ISHORA TILI FOYDALANUVCHILARI VA TARJIMA NAZARIYASI	PEDAGOGIKA	156
	МИР ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ ЖЕСТОВОГО ЯЗЫКА И ТЕОРИЯ ПЕРЕВОДА		
	THE WORLD OF SIGN LANGUAGE SPEAKERS AND TRANSLATION THEORY		
<i>IZZATOV SHERZOD SAMAD O'G'LI</i>	YOSHLARDA PSIXOLOGIK IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	162
	НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ		
	SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING PSYCHOLOGICAL IMMUNITY IN YOUNG PEOPLE		
<i>KARIMOV SHERZOD ABDURASULOVICH</i>	ICHKI LOKUS NAZORAT VA MOTIVATSION FAOLIYAT XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI	PSIXOLOGIYA	167
	ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ВНУТРЕННЕГО ЛОКУСА КОНТРОЛЯ И МОТИВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ		
	A STUDY OF THE CHARACTERISTICS OF INTERNAL LOCUS OF CONTROL AND MOTIVATIONAL ACTIVITY		
<i>MURATOVA SABOXAT CHORIYEVNA</i>	OILA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA BERISH	PEDAGOGIKA	174
	ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ СЕМЬИ И ШКОЛЫ		
	SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES IN FAMILY AND SCHOOL COOPERATION		

<i>NIYAZOVA NILUFAR FARXADOVNA</i>	ONKOLOGIK KASALLIKKA CHALINGAN BEMORLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	PSIXOLOGIYA	180
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ У ПАЦИЕНТОВ С ОНКОЛОГИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ		
	PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF EMOTIONAL STABILITY IN PATIENTS WITH ONCOLOGICAL DISEASES		
<i>QALANDAROVA YULDUZ BAHRAMOVNA</i>	PSIXOLOGIK TRENINGLAR ORQALI TALABALARDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	PSIXOLOGIYA	188
	ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ		
	THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' PSYCHOLOGICAL WELL-BEING THROUGH PSYCHOLOGICAL TRAINING PROGRAMS		
<i>RAHIMOVA NAZOKATXON KASIMDJONOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY YETUKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI VA TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	192
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ		
	PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL MATURITY AND THEIR IMPACT ON EDUCATIONAL EFFECTIVENESS		
<i>TOIROVA MUNAVVAR MURODULLAYEVNA</i>	O'SMIRLARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI	PSIXOLOGIYA	202
	ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У ПОДРОСТКОВ		
	PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING NATIONAL IDENTITY IN ADOLESCENTS		



Muratova Saboxat Choriyevna,

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, Pedagogika fanlari doktori (PhD)

OILA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA BERISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila va maktab hamkorligida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Oila va ta'lim muassasasining uzviy hamkorligi orqali yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy yetuklik, axloqiy fazilatlar, fuqarolik mas'uliyati hamda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, milliy qadriyatlarni tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning samarali shakl va metodlari hamda ularning o'quvchilar shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ta'siri ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: oila, maktab, hamkorlik, milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, xalq pedagogikasi, oilaviy tarbiya, o'quvchi, ma'naviy barkamollik, tarbiya texnologiyalari.

ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ СЕМЬИ И ШКОЛЫ

Аннотация. В данной статье освещается педагогическая значимость духовно-нравственного воспитания на основе национальных ценностей в сотрудничестве семьи и школы. Проанализированы теоретические и практические аспекты формирования у подрастающего поколения уважения к национальным ценностям, духовной зрелости, нравственных качеств, гражданской ответственности и чувства патриотизма посредством тесного сотрудничества семьи и образовательного учреждения. Также научно обоснованы эффективные формы и методы интеграции национальных ценностей в воспитательный процесс, а также их влияние на всестороннее развитие личности учащихся.

Ключевые слова: семья, школа, сотрудничество, национальные ценности, духовно-нравственное воспитание, народная педагогика, семейное воспитание, ученик, духовное совершенство, технологии воспитания.

SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES IN FAMILY AND SCHOOL COOPERATION

Abstract. This article highlights the pedagogical significance of spiritual and moral education based on national values in the collaboration of family and school. The theoretical and practical aspects of forming respect for national values, spiritual maturity, moral qualities, civic responsibility, and patriotism in the younger generation through the close cooperation of the family and the educational institution have been analyzed. Furthermore, effective forms and methods of integrating national values into the educational process, as well as their influence on the comprehensive development of students' personalities, have been scientifically substantiated.

Key words: family, school, cooperation, national values, spiritual and moral education, folk pedagogy, family education, student, spiritual perfection, educational technologies.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining barqarorligi, mamlakatning kelajak istiqboli va ma'naviy yuksalishi bevosita yoshlarning axloqiy kamoloti, milliy o'zligini anglashi hamda yuksak ma'naviy fazilatlarga ega bo'lishi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli oila va maktabning tarbiyaviy hamkorligini kuchaytirish, milliy qadriyatlarga tayangan holda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.



Oila shaxs kamolotining dastlabki va eng muhim ijtimoiy muhiti bo'lib, unda bolaning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, odob-axloqi va milliy qadriyatlarga munosabati shakllanadi. Maktab esa ushbu jarayonni ilmiy-pedagogik asosda davom ettirib, o'quvchilarda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantiradi. Oila va maktabning maqsadli hamkorligi natijasida tarbiyaviy jarayonning uzluksizligi ta'minlanadi va ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Milliy qadriyatlar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, urf-odatlarini, an'analari, axloqiy me'yorlari va ma'naviy merosini o'zida mujassam etgan bo'lib, yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik, bag'rikenglik va oilaparvarlik kabi fazilatlar aynan milliy qadriyatlar negizida shakllanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, oila va ta'lim muassasalari hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ayrim hollarda oila va maktab o'rtasidagi tarbiyaviy hamkorlikning sustligi, ota-onalarning pedagogik madaniyati yetarli emasligi hamda milliy qadriyatlardan foydalanishning tizimli yo'lga qo'yilmagani ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan, oila va maktab hamkorligida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish, samarali metod va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilgan darajasi. Oila va maktab hamkorligi asosida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo xalq pedagogikasi, oilaviy pedagogika, etnopedagogika, ijtimoiy pedagogika va tarbiya nazariyasi doirasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy[2] va boshqa allomalar o'z asarlarida oilaning tarbiyadagi o'rni, axloqiy komillik, ota-onaning mas'uliyati hamda komil insonni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning ilmiy-ma'rifiy qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbek pedagog olimlari K. Hoshimov[6], O. Musurmonova[3], R. Mavlonova[5], M. Quronov[4], N. Egamberdiyeva[7], S. Nishonova[6] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, oilaviy tarbiya hamda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari chuqur tahlil qilingan. Ularning ilmiy ishlarida oila va maktabning tarbiyaviy hamkorligi, milliy qadriyatlarining shaxs kamolotidagi o'rni va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash mexanizmlari asoslab berilgan.

Shuningdek, xorijiy pedagogik tadqiqotlarda ham maktab, oila va mahalla hamkorligi, ijtimoiy sheriklik, fuqarolik tarbiyasi hamda qadriyatlarga asoslangan ta'lim konsepsiyalari keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki o'quvchilarning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Biroq mavjud ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oila va maktab hamkorligida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari, innovatsion texnologiyalari va amaliy modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, ota-onalar, pedagoglar va mahalla institutining uzviy hamkorligini ta'minlash, milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirish hamda ularning samaradorligini baholash masalalari qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Oila va maktab hamkorligi asosida milliy qadriyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish, uning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish hamda ta'lim jarayoniga joriy etish mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Muhokama. Oila va maktab hamkorligi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning eng muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Tarbiya jarayonining samaradorligi faqat ta'lim muassasasi faoliyati bilan emas, balki oiladagi ma'naviy muhit, ota-onalarning tarbiyaga bo'lgan mas'uliyati va maktab bilan olib boradigan hamkorligiga ham bevosita bog'liqdir. Shu bois oila va



maktabning yagona maqsad asosida faoliyat olib borishi barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Milliy qadriyatlar esa mazkur hamkorlikning ma'naviy negizini tashkil etadi. Chunki o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analari, oilaviy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va xalq pedagogikasi namunalari asrlar davomida inson kamolotiga xizmat qilib kelgan. Mazkur qadriyatlar bolalarda halollik, vijdonlilik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, bag'rikenglik va Vatanga muhabbat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya, avvalo, oilada boshlanadi. Bola ilk axloqiy tasavvurlarni ota-onasi, bobo-buvilari va yaqinlari orqali egallaydi. Oiladagi o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, samimiy munosabat, kattalarning shaxsiy namunasi bolaning kelajakdagi axloqiy qarashlarini belgilaydi. Agar oilada milliy qadriyatlar e'zozlansa, ajdodlar merosiga hurmat bilan qaralsa, milliy bayramlar, urf-odat va an'analarni muntazam davom ettirilsa, bolalarda ham ushbu qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

Maktab esa oilada boshlangan tarbiyaviy jarayonni ilmiy-pedagogik asosda davom ettiradi. O'qituvchilar dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini tushuntiradi, ularni zamonaviy hayot bilan bog'laydi hamda kundalik faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, tarbiya darslari, tarix, adabiyot, musiqa, tasviriy san'at va ona tili fanlari milliy qadriyatlarni singdirish uchun katta pedagogik imkoniyatlarga ega.

Oila va maktab hamkorligining samaradorligi muntazam muloqotga bog'liq. Ota-onalar yig'ilishlari, davra suhbatlari, seminar-treninglar, ochiq darslar, oilaviy loyihalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va individual maslahatlar orqali ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish mumkin. Bu esa bolaning ta'lim va tarbiyasiga nisbatan yagona talablarning shakllanishini ta'minlaydi.

Milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan oilaviy tadbirlar ham ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samarali vositasi hisoblanadi. Masalan, Navro'z, Ramazon va Qurbon hayitlari, Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, Xotira va qadrlash kuni kabi sanalarni oilada nishonlash, ularga bag'ishlangan suhbatlar tashkil etish, ajdodlar hayoti haqida hikoyalar aytib berish yoshlarning tarixiy xotirasini boyitadi va milliy o'zligini mustahkamlaydi.

Maktabda tashkil etiladigan "Ota-onalar kuni", "Namunali oila", "Milliy qadriyatlar haftaligi", "Mahalla va maktab hamkorligi", "Ajdodlar merosi – ma'naviyatimiz asosi" kabi tadbirlar oila va maktab o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlaydi. Bunday tadbirlarda ota-onalar bevosita ishtirok etishi bolalarda oilaga va maktabga nisbatan ishonchni kuchaytiradi hamda tarbiyaviy ta'sirni yanada samarali qiladi.

Oila, maktab va mahalla uchligi milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda o'zaro uyg'un faoliyat olib borishi zarur. Mahalla faollari, nuroniylar, imom-xatiblar, ziyolilar va tajribali ota-onalar ishtirokida o'tkaziladigan ma'naviy uchrashuvlar yoshlarning milliy qadriyatlarga hurmatini kuchaytiradi. Ayniqsa, mahallada o'tkaziladigan hasharlar, xayriya tadbirlari, ekologik aksiyalar va milliy bayramlar yoshlarni jamoaviylik, hamjihatlik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalaydi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanishi tarbiya jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Oila va maktab o'rtasidagi aloqalarni Telegram guruhlarini, elektron kundaliklar, onlayn uchrashuvlar va raqamli platformalar orqali tashkil etish ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini yanada faollashtiradi. Shu bilan birga, internet tarmog'ida milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi videoroliklar, elektron darsliklar, virtual muzeylar va ma'naviy-ma'rifiy resurslardan foydalanish yoshlarning qiziqishini oshiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida interfaol pedagogik metodlardan foydalanish ham muhimdir. "Aqliy hujum", "Munozara", "Keys-stadi", "Klaster", "Rolli o'yin", "Loyiha metodi", "Muammoli vaziyat" kabi metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, "Oilamizning qadriyatlari", "Mening bobom – mening faxrim", "Milliy qadriyatlar va zamonaviy yoshlar", "Mahallamiz tarixini o'rganamiz" kabi loyiha ishlari o'quvchilarning izlanish faoliyatini kuchaytiradi.



Bundan tashqari, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ham ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ota-onalar va farzandlarning birgalikda badiiy asarlar mutolaa qilishi, tarixiy shaxslar hayoti bilan tanishishi, xalq ertaklari va rivoyatlarini muhokama qilishi bolaning axloqiy dunyoqarashini boyitadi. Ayniqsa, Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlarning asarlaridan namunalar o'qish yoshlarning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyada shaxsiy namuna tamoyili alohida ahamiyatga ega. Ota-ona va o'qituvchining o'z xulqi, odobi, mehnatsevarligi, mas'uliyati va insoniy fazilatlarini bolalar uchun eng kuchli tarbiyaviy omil hisoblanadi. Chunki bolalar ko'proq kattalarning amaliy faoliyatiga taqlid qiladilar. Shu sababli ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunasi milliy qadriyatlarni singdirishda hal qiluvchi omillardan biridir.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, oila va maktabning uzviy hamkorligi asosida tashkil etilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor, yuksak ma'naviyat, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish uchun oila, maktab va mahalla o'rtasida yagona pedagogik tizimni shakllantirish, ota-onalarning pedagogik kompetensiyasini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda milliy qadriyatlarni barcha fanlar mazmuniga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Natijalar. Tadqiqot davomida oila va maktab hamkorligida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning samaradorligini aniqlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktabining 5–9-sinflarida tahsil olayotgan 150 nafar o'quvchi, 150 nafar ota-ona hamda 24 nafar pedagog ishtirokida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda kuzatish, suhbat, anketa, pedagogik monitoring va taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

Tajriba jarayonida oila va maktab hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan "Oila–Maktab–Mahalla" hamkorlik dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Dastur doirasida ota-onalar uchun pedagogik seminarlar, milliy qadriyatlarga bag'ishlangan davra suhbatlari, oilaviy ma'naviyat kechalari, "Namunali oila", "Milliy qadriyatlar haftaligi", "Ajdodlar merosi – ma'naviyatimiz asosi" mavzularida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda o'quvchilar ishtirokida ijodiy loyihalar tashkil etildi.

Pedagogik tajriba boshida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasi, milliy qadriyatlarga munosabati, oilaviy qadriyatlarga hurmati, ijtimoiy faolligi va ota-onalar bilan hamkorlik darajasi o'rganildi. Tajriba yakunida esa ushbu ko'rsatkichlar qayta baholanib, ularning sezilarli darajada yaxshilangani aniqlandi.

Natijalarga ko'ra, o'quvchilarning milliy qadriyatlarga hurmat ko'rsatkichi 59,3 % dan 92,0 % ga, ma'naviy-axloqiy xulq-atvor darajasi 61,3 % dan 90,7 % ga, oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabati 63,3 % dan 94,0 % ga oshdi. Shuningdek, ota-onalarning maktab tarbiyaviy tadbirlaridagi ishtiroki 48,0 % dan 88,7 % ga, o'quvchilarning ijtimoiy faolligi 56,7 % dan 89,3 % ga, pedagog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik darajasi esa 52,0 % dan 91,3 % ga ko'tarildi.

1-jadval

Oila va maktab hamkorligida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi (n = 150)

№	Baholash mezonlari	Tajribagacha (%)	Tajribadan so'ng (%)	O'sish (+%)
1	Milliy qadriyatlarga hurmat	59,3	92,0	+32,7
2	Ma'naviy-axloqiy xulq-atvor	61,3	90,7	+29,4
3	Oilaviy qadriyatlarga sodiqlik	63,3	94,0	+30,7
4	Ota-onalar bilan muloqot madaniyati	60,0	91,3	+31,3
5	O'quvchilarning ijtimoiy faolligi	56,7	89,3	+32,6



6	Ota-onalarning maktab hayotidagi ishtiroki	48,0	88,7	+40,7
7	Oila va maktab hamkorligi samaradorligi	52,0	91,3	+39,3
8	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi faollik	58,7	93,3	+34,6

Jadval ma'lumotlari barcha mezonlar bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarish kuzatilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ota-onalarning maktab hayotidagi ishtiroki 40,7 % ga, oila va maktab hamkorligi samaradorligi esa 39,3 % ga oshgani hamkorlik asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyatning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

2-jadval

Yakuniy so'rovnoma natijalari (n = 150 nafar o'quvchi)

So'rovnoma savollari	"Ha" (%)	"Qisman" (%)	"Yo'q" (%)
Milliy qadriyatlar haqidagi bilimim oshdi	94,7	4,0	1,3
Ota-onam bilan ma'naviy mavzularda ko'proq suhbatlashadigan bo'ldim	91,3	6,7	2,0
Maktab tadbirlarida faolroq ishtirok eta boshladim	89,3	8,0	2,7
Milliy urf-odatlariga qiziqishim ortdi	93,3	5,3	1,4
Kelajakda milliy qadriyatlarga amal qilishni istayman	96,0	3,3	0,7

So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 94,7 % i milliy qadriyatlar haqidagi bilimlari oshganini, 91,3 % i ota-onalari bilan ma'naviy mavzularda ko'proq suhbatlashayotganini, 96,0 % i esa kelajakda milliy qadriyatlarga amal qilishni o'zining muhim hayotiy tamoyili sifatida qabul qilganini bildirgan. Pedagoglar o'rtasida o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, 87,5 % o'qituvchi ota-onalarning maktab bilan hamkorligi sezilarli yaxshilanganini, 91,7 % pedagog esa o'quvchilarning xulq-atvori va jamoada ishlash ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini qayd etdi. Ota-onalarning 89,3 % i esa maktab bilan muntazam hamkorlik qilish farzandining tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ta'kidladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oila va maktab hamkorligini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy faolligi, oilaviy qadriyatlarga sadoqati va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Xulosa. Tadqiqot natijalari oila va maktab hamkorligi milliy qadriyatlar asosida tashkil etilganda ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi sezilarli darajada oshishini ko'rsatdi. Oila va maktabning uzviy hamkorligi o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, axloqiy madaniyat, oilaparvarlik, mas'uliyat, mehnatsevarlik va fuqarolik fazilatlarini shakllantirishning muhim pedagogik omili ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan tasdiqlandi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan "Oila-Maktab-Mahalla" hamkorlik modeli o'quvchilarning ma'naviy kamoloti, ota-onalarning pedagogik faolligi hamda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Milliy bayramlar, oilaviy an'analar, xalq pedagogikasi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish tarbiya jarayonining sifatini sezilarli yaxshiladi. Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarga tayangan holda oila va maktab hamkorligini rivojlantirish barkamol, ma'naviy yetuk, ijtimoiy faol va milliy o'zligiga sodiq shaxsni tarbiyalashning eng samarali pedagogik yo'llaridan biridir. Shu sababli ta'lim muassasalarida ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni kuchaytirish, milliy qadriyatlarni o'quv-tarbiya jarayonining barcha bosqichlariga integratsiya qilish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.



1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
3. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
4. Quronov M. Milliy tarbiya va yoshlar ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 224 b.
5. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Vohidova N., Matnazarova K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 464 b.
6. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 304 b.
7. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-aprel kuni № 720072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**“ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR”
ILMIY NAZARIY JURNALI
№ 7-son, 1-qism, 2026**

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90

**Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar ilmiy-nazariy jurnal.
Buxoro, 2026. № 7-Son, 1-qism.**